

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Тўхтасинов Илҳом**  
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

**Главный редактор:**  
**Тухтасинов Илхом**  
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

**Заместитель главного редактора:**

**Editor in Chief:**  
**Tuhtasinov Ilhom**  
DSc. Professor (Uzbekistan)

**Deputy Chief Editor**

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистон)

**Якуб Умарўғли**  
ф.ф.д., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

**Бокиева Гуландом**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Миннуллин Ким**  
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

**Махмудов Низомиддин**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Керимов Исмаил**  
ф.ф.д., профессор (Россия)

**Жўраев Маматкул**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистон)

**Кристофер Жеймс Форт**  
Мичиган университети (АҚШ)

**Умархўжаев Мухтор**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Мирзаев Ибодулло**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Болтабоев Ҳамидулла**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Лиходзиевский А.С.**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Сиддикова Ирода**  
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

**Шнукашвили Тамар**  
ф.ф.д. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
масъул қотиб, PhD, доцент  
(Ўзбекистон)

**Мўминова Маъсума Ғолиб қизи**  
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

## РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

**Назаров Бахтиёр**  
академик. (Ўзбекистан)

**Якуб Умар оғли**  
д.ф.н., профессор (Туркия)

**Алмаз Улви Биннатова**  
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

**Бакиева Гуландом**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Миннуллин Ким**  
д.ф.н., профессор (Татарстан)

**Махмудов Низомиддин**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Керимов Исмаил**  
д.ф.н., профессор (Россия)

**Джўраев Маматкул**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Куренов Рахиммамед**  
к.ф.н. (Туркменистан)

**Кристофер Джеймс Форт**  
Университет Мичигана (США)

**Умархаджаев Мухтар**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Мирзаев Ибодулло**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Балтабаев Ҳамидулла**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Дўстмухаммедов Хуршид**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Лиходзиевский А.С.**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Сиддикова Ирода**  
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

**Шнукашвили Тамар**  
д.ф.н. (Грузия)

**Туробов Бекпулат**  
отв. секретарь, PhD, доцент  
(Ўзбекистан)

**Муминова Масума Ғолиб қизи**  
PhD и.о. доцент

## EDITORIAL BOARD

**Bakhtiyor Nazarov**  
academician. (Uzbekistan)

**Yakub Umarogli**  
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

**Almaz Ulvi Binnatova**  
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

**Bakieva Gulandom**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Minnulin Kim**  
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

**Mahmudov Nizomiddin**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kerimov Ismail**  
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

**Juraev Mamatkul**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Kurenov Rakhimmamed**  
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

**Christopher James Fort**  
University of Michigan (USA)

**Umarchodjaev Mukhtar**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Mirzaev Ibodulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Boltaboev Hamidulla**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Dustmuhammadov Khurshid**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Lixodzievsky A.S.**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Siddiqova Iroda**  
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

**Shiukashvili Tamar**  
Doc. of philol. scien. (Georgia)

**Turobov Bekpulat**  
PhD Ass. prof. Senior Secretary  
(Uzbekistan)

**Mo'minova Ma'suma**  
PhD Acting Docent  
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

<b>1. Tursunova Parvina Mamurjonovna</b> NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
<b>2. Умурова Гузал Хотамовна</b> ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
<b>3. Даминова Фазода Ирисовна</b> ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
<b>4. Рахматова Гулнора Турсиновна</b> ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
<b>5. Усманова Салиха Юлдашевна</b> ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
<b>6. Ибаев Анвар Журабекович</b> ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
<b>7. Т.А.Эргашева</b> СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
<b>8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich</b> ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
<b>9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna</b> RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
<b>10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna</b> PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
<b>11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich</b> ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
<b>12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi</b> ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
<b>13. Aybibi ISKANDAROVA</b> O‘ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
<b>14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna</b> THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	93
<b>15. Воҳидов Абдувахоб</b> САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
<b>16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна</b> ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

<b>17. Zaynutdinova Durdona Asatovna</b> ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
<b>18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi</b> THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
<b>19. Ochilova Noila Farmonovna</b> O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
<b>20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi</b> BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI ( ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
<b>21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li</b> AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
<b>22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna</b> AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
<b>23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova</b> SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
<b>24. N.M.Shamuradova</b> INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
<b>25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva</b> ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
<b>26. Башарова Лейла</b> РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
<b>27. Ivanova Alena Yadmagieвна</b> TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
<b>28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi</b> O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
<b>29. Asqar Abdullaev</b> SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
<b>30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna</b> FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
<b>31. Сабина Авазжоновна Махмудова</b> ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
<b>32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich</b> RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200




ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

**Aybibi ISKANDAROVA**

O‘zbekiston Milliy universiteti  
Kompyuter lingvistikasi va amaliy tilshunoslik  
kafedrası dotsenti, f.f.n.  
E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

## O‘ZBEK KORPUSSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.20814849>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada parallel korpuslarga doir tadqiqotlar, ularning tildagi davriy o‘zgarishlarni, tillararo yoki matn darajasidagi ekvivalentlik, konkordanslarning semantik, pragmatik, grammatik belgilariga ko‘ra yaqinligi yoki farqli jihatlarni tahlil qilish, matndagi birliklar chastotasini aniqlash, yozuvchining fikr ifodalash kombinatsiyalari va tarjimon strategiyalarini tadqiq qilishdagi lingvistik ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** parallel korpus, elektron manba, tillararo ekvivalent birlik, davriy o‘zgarish, tarjima xotirasi, leksik grammatik tizim, miqdoriy tahlil, qiyosiy tilshunoslik, mashina tarjimasi, badiiy asarlar elekton lug‘ati, tarjima nazariyasi.

---

**Искандарова Айбиби Рахимбаевна**

Национальный университет Узбекиста  
Доцент, к.ф.н. кафедры Компьютерной лингвистики  
и прикладной лингвистики  
E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

## ИССЛЕДОВАНИЯ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ В УЗБЕКСКОЙ КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ И ИХ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ

### АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются исследования, посвящённые параллельным корпусам, а также их лингвистическое значение в изучении периодических изменений языка, межъязыковой или текстовой эквивалентности, анализе сходств и различий конкордансов по семантическим, прагматическим и грамматическим признакам, определении частотности единиц текста, исследовании комбинаций выражения мыслей автора и переводческих стратегий.

**Ключевые слова:** параллельный корпус, электронный ресурс, межъязыковая эквивалентная единица, периодическое изменение, память перевода, лексико-грамматическая система, количественный анализ, сравнительное языкознание, машинный перевод, электронный словарь художественных произведений, теория перевода.

**Iskandarova Aybibi Rakhimbayevna**

Associate Professor, Ph.D. (Philology)

Department of Computational Linguistics and applied Linguistics

National University of Uzbekistan

E-mail: aybibiiskandarova1962@gmail.com

**RESEARCH ON PARALLEL CORPORA IN UZBEK CORPUS LINGUISTICS AND THEIR LINGUISTIC SIGNIFICANCE****ABSTRACT**

This article discusses studies related to parallel corpora (corpus) and their linguistic significance in examining periodic changes in language, interlingual or text-level equivalence, analyzing similarities and differences of concordances based on semantic, pragmatic, and grammatical features, determining the frequency of textual units, and investigating the combinations of expression used by authors as well as translation strategies.

**Keywords:** parallel corpus, electronic resource, interlingual equivalent unit, periodic change, translation memory, lexico-grammatical system, quantitative analysis, comparative linguistics, machine translation, electronic dictionary of literary works, translation theory.

**Kirish.** Kompyuter lingvistikasi tilshunoslikning istiqbolli yo'nalishlaridan biri. Bugungi kunda, tilshunoslikka doir tadqiqotlarni til korpuslari doirasida olib borish taqozo etilmoqda. "Korpusning paydo bo'lishi tilshunoslarga shunchaki lingvistik dalillarni tahlil qilish uchun yangi vositalarni taqdim etmaydi, balki u ma'lum darajada nazariy ustuvorlikni, qisman hatto til nima ekanligi va tilni o'rganishning qaysi vazifalari eng muhim ekanligi haqidagi qarashlarni ham o'zgartirib yubordi"[1. 20].

Zamonaviy tilshunoslikda til korpuslarining ahamiyati katta: gazetalar korpusi matnlarni tahlil qilish orqali tildagi davriy o'zgirishlarni, mualliflik korpusi yozuvchi yoki shoirning badiiy nutq kombinatsiyalari, so'z qo'llash chastotasi, uslubining o'ziga xosligini, audio va multimediya korpuslari tabiiy tilni asrash, nutq jarayonida ma'noni yetkazishga yordam beradigan kulish, xo'rsinish, yo'talish, ovoz balandligi, nutq tezligi kabi paralingvistik elementlarni, dialektal kopus milliy tilning katta hajmli zahirasini, ular orqali xalqning tarixi, urf-odatlarini, madaniyatini raqamli saqlash va tadqiq etish imkoniyatlarini kengaytirdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Parallel korpus barcha uslublarning og'zaki va yozma matnlari uchun elektron ma'lumotlar bazasi bo'lib, ilmiy kuzatuvlar uchun keng tahlil maydoni: tillararo leksik birliklarni taqqoslash, ular orasidagi semantik, sintaktik, pragmatik va kombinativ farqlar aniqlanadi, qiyoslanayotgan tilda standart tarjima ekvivalentlariga ega bo'lmagan birliklar ajratib ko'rsatiladi, o'ziga xos tarjima strategiyalari o'rganiladi. "Parallel korpus – asl va tarjima matnlari yig'indisidan iborat korpus. Bu matnlar shunchaki yonma-yon qo'yilmaydi, balki bu ikki matndagi gap (sintaktik birliklar) mazmunan mos kelish darajasida bo'laklarga bo'linib, bu birliklar yonma-yon, bir-biriga ishora-havola qilish holatida turadi. Asliyatdagi matn fragmentiga mos keluvchi tarjimadagi fragment moslashgan holda bo'ladi. Aynan, mana shu holat bunday korpuslar yordamida turli lingvistik amallarni bajarishga imkoniyat yaratadi"[2.20].

Ikki tilli parallel korpus ma'lumotlar bazasi matn kiritish, qayta ishlash, maxsus belgilash, avtomatik razmetkalash natijalarini tahrir qilish, qidiruv tizimiga muvofiqlashtirish, parallel korpusni yaratish va undan foydalanish aspektlari tavsiflangan hujjat ta'minoti, korpus-manajerining so'rov tili haqida ma'lumot kiritish bosqichlari asosida shakllantiriladi. Parallel korpusda qidiruv tizimi leksema, so'zshakl, grammatik belgilarga asoslanuvchi leksik-grammatik tizimda ishlaydi. Parallel korpuslarning lingvistik ta'minotini shakllantirishda morfologik va grafematik, semantik tahlillar alohida qiymatga ega.

Professor D.O.Dobrovolskiyning Rus tili Milliy Korpusi parallel subkorpusi doirasida olib borgan tadqiqotlari amaliy jihatdan aniqligi, kengqamrovliligi bilan ajralib turadi. Olim, tadqiqotida nemis, ingliz va rus tillarining semantik jihatdan yaqin iboralari o'rtasidagi farqlarni kuzatib, tillararo ekvivalentlik tushunchasining chegaralarini tadqiq qilgan: "Masalan, "cho'chqa oldiga marvaridlarni

tashlash” iborasi va uning nemischa korrelyati “Perlen vor die Säue werfen” iborasini solishtiring. Shunga qaramay, bu iboralarni faqat juda shartli tarzda ekvivalent deb hisoblash mumkin. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, “Perlen vor die Säue werfen (cho‘chqa oldiga marvaridlarni tashlash) iborasi o‘zining tarixiy rivojlanishida sezilarli semantik o‘zgarishlarga uchragan, shuning uchun uning zamonaviy ma‘nosi ruscha “cho‘chqa oldiga marvaridlarni tashlash” iborasidan sezilarli darajada farq qiladi. Shunday qilib, korpus ma‘lumotlari yordamida javob berilishi kerak bo‘lgan savol ekvivalentlik tushunchasining chegaralari va uni amalga oshirish usullari masalasidir”. “Shubhasiz, ikki tili lug‘at bunday o‘ziga xosliklarni aks ettirishi kerak. Parallel korpus doirasida bunday tadqiqot usullarini qo‘llash nafaqat frazeologiya haqida yangi bilimlarni olish, balki frazeologik lug‘atlar tuzish uchun ham foydali bo‘lishi mumkin” [3.402].

Professor Nilufar Abduraxmonova “Parallel korpus yaratishning kompyuter usullari” haqidagi tadqiqotida “Ikki tili o‘zbekcha-inglizcha, inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-ruscha, ruscha-o‘zbekcha parallel matn yaratishning gap segmentlariga ajratish, tarjima birliklari bo‘yicha ularning muqobil variantlarini aniqlash, tarjima xotirasi va glossariysini yaratishda WordFast texnologiyasining afzalliklari va funksional imkoniyatlarini ko‘rsatib o‘tadi. Olib borilgan izlanishlar natijasi sifatida parallel matn yaratishning algoritmini ishlab chiqadi”[4.16].

**Tahlil va natijalar:** O‘zbek tilshunosligida S.Muhamedova, N.Abduraxmonova, B.Mengliyev, Z.Xolmanova, Sh.Xamroyeva, A.Eshmuminov, G.Toirova, A.Raxmonova, M.Xolova, R.Karimov, N.G‘ulomovalar korpus lingvistikasi bo‘yicha tadqiqot olib borishgan va korpus turlari, tuzilishi, ishlash mexanizmi, lingvistik modellar haqida ma‘lumot berishgan[5.8].

N.Abduraxmonovanning “O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari” tadqiqotida korpus texnologiyasi kompyuter lingvistikasining asosiy obyekti va predmeti sifatida matnlarni qayta ishlashda tabiiy tilning muayyan vaziyatdagi modeli vazifasini bajarishi, tizimlashtirilgan va ma‘lum me‘yorlarga asoslangan tasnifiy matnlardan iborat elektron korpus lisoniy qoliplar, grammatik qoidalar, lug‘atlarni yanada takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etishi, tilning pragmatik va kognitiv tasviri aks etgan og‘zaki va yozma matnlar majmuasi (korpus) ontologik bilimlar bazasi, semantik va neyro to‘rlar va sun‘iy intellekt texnologiyasi hamda lingvoprotsessor uchun tilning lisoniy modellari va nutqiy aktlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynashi asoslangan [6.16].

R.Karimovning “O‘zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning lingvistik va dasturiy masalalari” ilmiy ishida parallel korpusning lingvistik va lingvodidaktik baza sifatidagi xarakteristikasi, tuzilishi, tarkibi, tarjima sohasidagi imkoniyatlari o‘rganilgan. O‘zbek-ingliz parallel korpusini tuzishning nazariy asoslari, material tanlash tamoyillari, lingvistik va ekstralingvistik teglash masalalari yoritilgan[7. 7].

Sh.G.Musurmankulovanning “O‘zbekcha va turkcha frazemalar korpusining lingvistik ta‘minoti” (PhD) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olish uchun yozgan dissertatsiyasida o‘zbek va turk tillaridagi frazemalarning struktur-semantik jihatlari tadqiq qilingan. Parallel frazemalarning morfologik va sintaktik modellashtirilgan, tarkibiy xususiyatlariga ko‘ra teglangan lingvistik ta‘minoti yaratilgan. O‘zbekcha va turkcha frazemalarning mazmuniy munosabatlari izohlanib, semantik farqlarning lisoniy-madaniy, lingvokulturologik asoslari aniqlangan hamda o‘zbek va turk tillari egalari lisoniy ongi bilan bog‘liq kognitiv modellari ishlab chiqilgan: masalan, o‘zbek va turk tillaridagi soma tarkibli frazemalarda ot+ot modeli, ot+sifat, sifatdosh+ot modeli, ammo ot+fe‘l modelidagi frazemalar ko‘p uchrashi, bunday holat o‘zbek va turk tillarining umumiy grammatik qonuniyatlari bilan bog‘liqligi izohlangan, so‘zlarning birikish modellari umumiy, lekin grammatik shakllarning qo‘llanilishi jihatidan farqlari tahlil qilingan. O‘zbek va turk tillari frazemalari korpusining lingvistik ta‘minoti mazkur tillardagi frazemalar fondini jamlash, qiyoslash, o‘zbek va turk tarjimashunosligini takomillashtirish, o‘zbek tilidagi avtomatik tarjima imkoniyatini kengaytirishga xizmat qilishi asoslangan [8.107].



A. Axmedovanning “Parallel korpusda o‘xshatishlarning leksik-semantik munosabatlari tadqiqi” monografiyasida bilingval parallel korpus: ingliz-o‘zbek, o‘zbek-ingliz o‘xshatishlarining semantik maydon doirasida sintagmatik va paradigmatic munosabatlari ingliz va o‘zbek tillaridagi 35 ta badiiy adabiyot namunasining parallel matnlarida uchrovchi o‘xshatishlari tahlilga tortilgan va ularning tarjima matnlari o‘zaro moslashtirilgan. Ikki


tilda to‘plangan turg‘un o‘xshatishlar strukturaviy-semantik, lingvokulturologik hamda lingvopoetik xususiyatlari o‘rganilib chiqilgan holda ular leksik-semantik maydonlarga birlashtirilgan. Parallel korpusdagi matnlar asosida birgina qora so‘zi bilan keluvchi konkordanslar tahliliga tayanib, ingliz va o‘zbek tillarida leksik-semantik maydonlar tahlil qilingan. Masalan, rang (obyekt: oqlik, qoralik, qizillik) semantik maydoniga kiruvchi qora etalonli o‘xshatishlarni ikki tilda 11 turdagi semalar: hell (jahannam) crow (qarg‘a) devil’s heart (shaytonning yuragi), depressive’s thoughts, black cats (qora mushuk), black as black (habashday qora), bottomless (tubsizlik), despair (umidsizlik), dusk (shom), sorrow (qayg‘u), coal (ko‘mir) ning mavjudligi parallel korpusda o‘z ifodasini topgan. Tadqiqot jarayonida parallel korpusda o‘xshatishlarni makro va mikromaydonlarga ajratish bilan birga, ular o‘rtasidagi paradigmatic va syntagmatic, lingvomadaniy xususiyatlar o‘rganilgan [9.72].

N.Abduraxmonova, G.Shamsiyevalarning “Parallel korpusga asoslangan mashina tarjimasini” monografiyasida mashina tarjimasidagi semantik xatoliklarni kamaytirish, tarjima sifatini oshirish texnologiyalariga diqqat qaratiladi. Ko‘p ma‘noli so‘zlar, iboralar, omonimlar tarjimasida noto‘g‘ri ma‘nodan foydalanish holatlari o‘zbek-ingliz matnlari misolida tahlil qilinadi: *Endi hovlilarning eshiklari ochilgan, bolalar cho‘ntaklarini yong‘oq oshiq'larga to‘ldirib, ko‘chaga chiqa boshlagan edi. – Now the doors of the courtyards were opened, children filled their pockets with nuts and lovers and started to go out*

Mazkur gapda “oshiq” omonim so‘zining “o‘yin” ma‘nosi anglashilgan bo‘lib, avtomatik tarjimada bu so‘zning “sevib qolgan” ma‘nosi tarjima qilingan: “lovers”. Mualliflar muammoning yechimi sifatida ko‘p ma‘noli so‘zlar, omonimlar, iboralarining ma‘lumotlar bazasini yig‘ish, ularning modellarini ishlab chiqish va MT tizimiga o‘qitish, semantik analizator modellari ishlab chiqilishi kerakligini ta’kidlaydilar [10.164].

“Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarning xoslanishi” tadqiqotimizda Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani asliyatini va o‘zbek tiliga tarjima variantidagi birliklarni Google Translate, Tilmoch, Yandex Переводчик dasturlari orqali tekshirganimizda bu birliklar tarjimasida semantik nomuofiqlikka duch keldik:





Google Переводчик dasturi “*как щенку*”, *живой водоворот*” metaforasini “*bir parcha-parcha, tirik girdob kabi*” shaklida o’girdi. Tarjimon esa “*girdobga tushgan cho’pdek chirpirak qilib aylanadi*” shaklida tarjima qilgan. Tilmoich dasturi “*моему наивному возмущению*” birligini “*mening sodda jahldorligimga*” tarzida tarjima qildi. Ibrohim G’afurov esa “*voy bolasi tushmagur-ey*” milliy ekvivalent shaklida o’girgan. Yandex mashina tarjimasida “*притаилась, от страха не выдержали*” – “*u yashirinib qo’rquvdan omon qolmadi*” tarzida o’girilgan. Ibrohim G’afurov bu birlikni “*esxonalari chiqqancha, yuraklari dosh bermay*” obrazli, ta’sirchan frazema shaklida o’girgan:[11.125]

Волки сначала ***притаилась, от страха*** вжимаясь в корневия чиев, но затем ***не выдержали*** и бросились наутёк проклятого места

Bo’rilar ham ***esxonalari chiqqancha***, psib chiylarning do’mpaygan ildiz to’plari tagiga biqindilar. Lekin baribir ***yuraklari dosh bermay***, la’nati yerdan ura qochishga tushdilar.

**Xulosalar.** Til korpuslari, shuningdek parallel korpuslar doirasida olib borilayotgan tadqiqotlar o’zining empirik xarakterga egaligi bilan ajralib turadi. Bunday korpuslar tadqiqotchilardan ilmiy kuzatuvlarni aniq matnlar asosida amalga oshirishni talab qiladi. Til uchun muhim bo’lgan asosiy qoidalar majmuyi ko’rpus ma’lumotlaridan olinadi.

Parallel korpusdagi matnlarga filologik yondashuv asosida ishchi gipoteza oldindan shakllantirilmaydi, balki korpusdagi birliklar tahlilidan olinadi. Olingan ma’lumotlarni o’rganish tadqiqotning birinchi bosqichiga aylanadi, keyin nazariy umumlashmalar chiqariladi. Lemma, token, konkordanslar tahlili orqali nazariyadan uni tasdiqlash yoki rad etishgacha empirik ma’lumotlarni taqdim qilmaydi, balki leksik birliklar ilmiy kuzatuidan so’ng nazariy xulosalar chiqariladi. Korpus materiallaridan foydalangan holda bir necha tillar tizimida: semantik jihatdan yaqin birliklar o’rtasidagi farqlar kuzatilib, tillararo va matnlararo ekvivalentlik tushunchasining chegaralari ko’rsatib beriladi.

Parallel korpus og’zaki va yozma matn birliklarini lingvopoetik, lingvopragmatik, lingvomadaniy, statistik aspektda tadqiq qilish bazasidir. Tilshunoslik muammolari ko’rpuslar yordamida aniq miqdoriy tahlillar asosida hal etiladi. Shuningdek, parallel korpuslar elektron lug’atlar yaratish zaruriyatini taqozo qiladi. Parallel korpuslar doirasida yaratilgan leksik birliklarning elektron lug’ati mashina tarjimasida va sun’iy intellekt uchun tarjima xotirasi (Translation Memory) bo’lib xizmat qiladi. Jahon va turkologiyada parallel korpuslar doirasida salmoqli tadqiqotlar mavjud bo’lib, ular korpus leksikografiyasi, qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi, mashina tarjimasida kabi yo’nalishlarning rivojiga xizmat qilmoqda.

---

**Adabiyotlar**

---

- 1.Плунган А.В. Корпус как инструмент и идеология: некоторые уроки современной лингвистики. “Русский язык в научном освещении”. 2008. № 2 (16). 7-20 с.
- 2.Добровольский Д.О. “Какие задачи решают параллельные корпусы?” “Русский язык в научном освещении”. 2005. № 1 (9). 3-22 с.
- 3.Д.О.Добровольский “Корпусный подход к исследованию фразеологии: новые результаты по данным параллельных корпусов”. Вестник Санкт-Петербургского университета. Язык и литература. 2020. 17 (3): 398-411с.
4. Abduraxmonova N.Z. O‘zbek tili elektron korpusining kompyuter modellari. Filol. fan. dok. (DSc) diss. avtoref. -T, 2021. -72 b.
5. Abduraxmonova N.Z. Ko‘rsatilgan manba. -T, 2021. -72 b.
6. Abduraxmonova N.Z. Ko‘rsatilgan manba. -T, 2021. -72 b.
7. Каримов Р. Ўзбек-инглиз параллел корпусини тузишнинг лингвистик ва дастурий масалалари. Филол.фан.б.фалс.док (PhD) дисс. автореф. - Бухоро, 2022. -65 б.
8. Musurmankulova Sh.G. O‘zbekcha va turkcha frazemalar korpusining lingvistik ta‘minoti. Filol. fan. b. fals. dok(PhD) diss. - Guliston – 2024. -189 b.
- 9.А.Ахмедова.Параллел корпусда ўхшатишларнинг лексик–семантик муносабатлари тадқиқи. Монография. -Т.2022. -131б.
- 10.N. Abduraxmonova. G.Shamsiyeva. Parallel korpusga asoslangan mashina tarjimasi. Monografiya.- T.2025. – 183 b.
11. Iskandarova A.R.Parallel korpusda tarjima birliklarining xoslanishi. Monografiya. -T.2025. - 141b.

# СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА  
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000